
"Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!"

Ichki ishlar organlarida "Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!" shiori ostida bo'lib o'tayotgan "Ma'naviyat oyligi" doirasida Toshloq tumanida IIB faxriylari va yoshlar ishtirokida "Uch avlod uchrashuvi" tashkil etildi.

Unda Farg'ona viloyati IIB faxriylar kengashi raisi iste'fodagi podpolkovnik Arabboy Usmonov, tuman IIB boshlig'ining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari mayor Mo'ydinjon Dehqonov hamda tuman IIB faxriylar kengashi raisi iste'fodagi kapitan Xalimjon Raxmonovlar ishtirok etdilar.

Uchrashuvda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2023 yilning 11 aprel kungi 100-sonli farmoyishiga asosan Ichki ishlar organlarida "Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!" shiori ostida joriy yilning 1 may kundan 1 iyun kuniga qadar "Ma'naviyat oyligi"ni o'tkazish belgilinganligi ta'kidlab o'tildi.

Shuningdek, uchrashuvda faxriylar so'zga chiqib, yosh xodimlarni Vatanga, yurtga muhabbat, kasbga sadoqat ruhida tarbiyalash, ijtimoiy-huquqiy himoya qilish, kasbiy jangovarligini oshirish, xizmat intizomi buzilishini oldini olish, korrupsiya holatlariga murosasiz bo'lish hususida fikr mulohazalar bildirdilar.

2023-05-04 16:46:17